O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon eng ko'p o'zgarishlarni boshidan kechirgan soha bu sport boshqaruvidir. Mustaqillikning ilk yillarida tizim Fizkultura va sport davlat komiteti tomonidan boshqarilgan. 1992-yil 14-yanvarda ushbu tuzilma Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi (Republic of Uzbekistan, 1994) deb qayta nomlangan.

2004-yil 27-sentyabrda esa Madaniyat ishlari vazirligi hamda sport sohasi birlashtirilib, Madaniyat va sport ishlari vazirligi (Republic of Uzbekistan, 2004) tashkil etilgan. 2017-yil 15-fevralda ushbu vazirlik ikkiga ajratilib, Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi (Republic of Uzbekistan, 2017), 2018-yil 5-martda qo'mita negizida Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (Republic of Uzbekistan, 2018), 2021-yil 6-aprelda mazkur vazirlik va Turizmni rivojlantirish qo'mitasi birlashtirilib, yangi Turizm va sport vazirligi (Republic of Uzbekistan, 2021), 2022-yil 18-fevralda ushbu idora ikkiga ajratilib, Sportni rivojlantirish vazirligi (Republic of Uzbekistan, 2022a), 2022-yil 24-dekabrda mazkur vazirlik negizida Yoshlar siyosati va sport vazirligi (Republic of Uzbekistan, 2022b) tashkil qilingan. So'nggi bor 2024-yil 20-yanvarda ushbu vazirlik negizida Sport vazirligi (Republic of Uzbekistan, 2024) tashkil etilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, birgina so'nggi 7 yil davomida jismoniy tarbiya va sport sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi boshqaruvi 6 marotaba o'zgaragan.

Mazkur jarayonlar davlatning ushbu soha faoliyati ustidan samarali nazoratni amalga oshirishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Qayd etish joizki, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni 3 marotaba, ya'ni 1992-, 2000- va 2015-yillarda qabul qilingan.

Bulardan ko'rinadiki, jismoniy tarbiya va sport sohasini tartibga solishga qaratilgan ma'muriy-boshqaruv jarayonlar ham bugungi zamon talablariga to'liq mos kelmaydi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Milliy Olimpiya qo'mitasi raisi Sh.M. Mirziyoyev boshchiligida 2025-yil 13-fevral kuni o'tkazilgan yig'ilishda qisqa muddatlarda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonunini ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi hamda amaliyotidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish vazifasi belgilandi (Mirziyoyev, 2025).

Mazkur jarayonda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi ma'muriy boshqaruvni tartibga solishga qaratilgan aniq va uzoq muddatli strategik vazifalarni belgilash hamda ularning huquqiy asoslarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, sohada korrupsiyaga qarshi kurashishni samarali tashkil etish uchun qonunchilikka xalqaro standartlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratish kerak. Bu esa milliy qonunchilikni xalqaro standartlar talablari asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli mazkur jarayonda qonunchilikni isloh qilish masalasiga ham imkon qadar ehtiyotkorlik bilan yondashish talab etiladi. Zero, sport boshqaruvi jarayonlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarga noto'g'ri tushuncha va havolaki normalarning kiritilishi kelgusida sohani tartibga solishda turli nomuvofiqlik hamda korrupsiyaviy omillar yuzaga kelishiga olib keladi.

Ayrim olimlar ta'kidlaganidek, korrupsiyaviy normalar odatda noqonuniy ijtimoiy munosabatlarni keltirib chiqaradi (Karpovich, 2010).

Metodlar

O'rganishlar sport sohasining boshqaruv jarayonlaridagi korrupsiyaviy huquqbuzar-

liklarning yuzaga kelishiga, eng avvalo, davlat organlari va sport tashkilotlarining diskretsiya vakolatlarini kengligi bilan bog'liq omillar sabab bo'layotganligini ko'rsatdi. Bunga qarorlar qabul qilish uchun aniq muddat, shart va asoslarning yo'qligi yoki noaniqligi, shuningdek bir xil funksiyalarni amalga oshiruvchi davlat organlarining mavjudligi sabab bo'ladi. Bu kabi omillar sport sohasini boshqarishda korrupsiya bilan bog'liq xatti-harakatlarning yuzaga kelishi va o'sishiga yordam beradi.

Shu jihatdan, sport boshqaruvi sohasida korrupsiya holatlari yuzaga kelishining eng asosiy sabablari sport tashkilotlari qarorlarining noaniqligi, qonun hujjatlarining nomukammalligi, sportni boshqarish va davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirishning sustligi, shuningdek sport tizimi tashkilotlarining avtonom hamda yopiqligi hisoblanadi (Alekseeva, 2018).

Zero, sport boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy omillarning oldini olishda normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy normalarni aniqlash, ularni bartaraf etish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Olimlardan I.S.Vlasov ta'kidlaganidek, so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimli chora-tadbirlarni talab qiladi va ular orasida qonunlardagi korrupsiyaga olib keluvchi holatlarni bartaraf etish mexanizmi asosiy o'rinlardan birini egallaydi (Vlasov et al., 2010).

Ushbu fikrga qo'shilgan holda sport boshqaruvi sohasidagi qonunchilik va idoraviy hujjatlarni ishlab chiqishda "korrupsiyadan xoli qonunchilik" tamoyilini to'liq tatbiq qilgan holda kelgusida huquqbuzarliklar yuzaga kelishiga imkon bergan korrupsiyaviy norma va omillarni bartaraf etish shart.

Shu nuqtayi nazardan, sport boshqaruvi sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, korrupsiyaning an'anaviy turlaridan himoyalangan emas. Negaki sport sohasidagi korrupsiya u yoki bu tarzda sport tadbirlari bilan bog'liq keng tijorat ekotizimlari bilan bog'liq.

Shu jihatdan, sport sohasida korrupsiyaning ikki turini, ya'ni sportni boshqarish sohasidagi korrupsiya va sport musobaqalari bilan bog'liq korrupsiyaga ajratgan holda ko'rsatib o'tish mumkin.

Rossiyalik olim T.G. Ponyatovskayaning fikriga ko'ra, sport sohasi sport manfaatlari bilan belgilanadigan maqsadlarga muvofiq harakat qiluvchi sport tuzilmalari tomonidan tartibga solinadigan o'z-o'zidan yopiq tizimdir (Ponyatovskaya, 2019).

Muhokama

Normativ darajada sport avtonomiyasi haqida birinchi eslatma 1949-yilgi "Olimpiya xartiyasi"da uchraydi (International Olympic Committee, 1949). Aynan o'sha paytda Olimpiya harakati milliy Olimpiya qo'mitalari va bu butun Olimpiya harakatining avtonom siyosatini rasmiy tan olgan. Olimpiya xartiyasining "Olimpizmning asosiy tamoyillari" bo'limida olimpizmning beshinchi asosiy tamoyili qayd etilgan bo'lib, unga ko'ra sport tashkilotlari avtonom tashkilotlarga xos bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, ular sport qoidalari va nazoratini mustaqil ravishda yaratishni o'z ichiga oladi (International Olympic Committee, 1949).

Shu bois sport federatsiyalari huquqiy jihatdan davlatdan mustaqil bo'lib, o'z soha va yo'nalishini tartibga solishga qaratilgan normalarini ishlab chiqadi hamda qabul qiladi. Bu ularning faoliyatida shartnoma, qoidalar asosida amalga oshirilib, har bir sport munosabatlari subyekting huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Bu kabi qoidalar milliy qonunchiligimizda ham o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra sport federatsiya (uyushma)larining tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi hamda tugatilishi, "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan o'ziga xos xususiyatlar inobatga olingan holda nodavlat-notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi (Republic of Uzbekistan, 2015).

Biroq sport sohasi ham jamiyat hayoti-

ning har qanday sohasi kabi qonun ustuvorligiga rioya qilishi va bo'ysunishi lozim.

Sportda avtonomiya tamoyili yaxshi boshqaruv tamoyili bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu sport tashkilotlari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligini tashkil etadi (Committee of Ministers of the Council of Europe, 2018).

Albatta, bu korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish nuqtayi nazaridan alohida ahamiyatga ega. Chunki oshkorolik bu nafaqat erkin foydalanish, balki fuqarolar, jamoat tashkilotlari va nazorat qiluvchi davlat organlari uchun ochiq ma'lumotlar asosida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar belgilarini aniqlash imkoniyatidir (Sorokin, 2015).

Biroq bu borada o'tkazilgan tadqiqotlarda deyarli barcha darajadagi sport tashkilotlarining faoliyati va boshqaruvida shaffoflik mavjud emasligi aniqlangan. Masalan, "Heywood, Unger & Wheatland" tashkiloti tomonidan dunyo bo'ylab futbol federatsiyalarining shaffoflik darajasi bo'yicha o'tkazilgan o'rganishda atigi 15 %i o'z faoliyati to'g'risidagi hisobotlarni nashr etishi ma'lum bo'lgan (Solntsev, 2017).

Sport tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda samarali boshqaruvning ikkinchi tamoyili hisobdorlikdir.

Bu borada Xalqaro yozgi olimpiya federatsiyalarining assotsiatsiyasi (ASOIF) tomonidan sport tashkilotlarini boshqarishning eng samarali usullarini tahlil qilish natijalarini aks ettiruvchi "Samarali boshqaruv amaliyoti namunalari" nomli maxsus loyiha ishlab chiqilgan (Association of Summer Olympic International Federations, 2018).

Xususan, u nizomlarni nashr etish, saylangan mansabdor shaxslar haqidagi ma'lumot, yillik hisobot, intizomiy qaror natijalarini e'lon qilish, qoidabuzilishlar haqida xabardor qilish tizimi, mablag'larning sarflanishini nazorat qilish, mustaqil audit va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Bir qator mamlakatlarda sportni samarali boshqarishga oid qoidalar to'plami qabul qilingan bo'lib, ularga rioya qilish davlat tomonidan moliyalashtirilishining muhim shartidir.

Misol uchun, Buyuk Britaniyada 2017-yilda Sportni boshqarish kodeksi qabul qilingan bo'lib, UK Sport yoki Sport England tomonidan to'g'ridan to'g'ri moliyalashtiriladigan sport tashkilotlari uchun majburiy standartlarni belgilaydi. Kodeksda hisobdorlik va oshkoralik, halollik, nazorat va muvofiqlik kabi samarali boshqaruv tamoyillari mustahkamlangan (Sport England, 2021).

Tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasida sport sohasidagi tashkilotlar faoliyatida samarali boshqaruvning rivojlanish darajasi qoniqarli emasligini ko'rsatmoqda.

Masalan, sport tashkilotlari faoliyatini baholashning umumiy mezonlarini belgilovchi yagona me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, sportni samarali boshqarishning ilg'or tajribalarini joriy etish, mablag'larni adolatli va shaffof taqsimlash, sportga sarmoya kiritish hamda yosh sportchilarni qo'llab-quvvatlash ishlarini ochiq va shaffof tashkil etish yo'lga qo'yilmagan.

Umuman olganda, mazkur sanab o'tilgan holatlar sport sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishda noaniqliklarni yuzaga keltirmoqda va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishi uchun zamin yaratmoqda.

Shu bois sportni boshqarish bo'yicha yagona universal yechim bo'lmasa-da, samarali boshqaruvning umumiy asosiy mezonlari eng kichik klublardan tortib xalqaro tashkilotlar darajasida hamma uchun amal qilishi kerak. Uning asosiy mezonlari esa asosan korporativ, davlat va notijorat sektorlarida qo'llaniladigan boshqaruv tamoyillariga mos kelishi lozim (Kupreeva, 2009).

Sportdagi ko'plab qoidalar va standartlar amalda davlat nazorati ostida emasligi, shartnoma hamda bitimlar sport tashkilotlari tomonidan mustaqil ravishda qabul qilinishi, sport tashkilotlarining avtonom ekanligi

sababli audit va hisobot mexanizmlari samarasizligicha qolmoqda. Mustaqil nazorat bo'lmagan joyda, tabiiyki, korrupsiya xavfi ortadi.

So'nggi yillarda sport menejmenti sohasining yaxshi rivojlanmayotganligi, natijada vijdotsiz shaxslarning bu sohaga kirib kelishiga imkon yaratilayotgani kuzatilmoqda (Truntsevskiy, 2020).

Natijalar

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda ham sport sohasining ma'muriy boshqaruv jarayonlaridagi bu kabi salbiy omillar sohada korrupsiyaviy jinoyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Jumladan, 2019–2024-yillarda 435 nafar shaxslar korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan. Ularning 1 nafari hakamlik markazi, 8 nafari jismoniy tarbiya va sport universiteti, 12 nafari sport federatsiyalari, 20 nafari sport jamiyatlari, 51 nafari sport vazirligining boshqaruv organlari, 343 nafari sport maktablari xodimlaridir.

O'rganishlarga ko'ra, sport sohasida ma'muriy boshqaruv jarayonlari bilan bog'liq holdagi korrupsiyaviy omillar, eng avvalo, sport tashkilotlariga xodimlarni ishga qabul qilish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sportni rivojlantirish vaziri lavozimida ishlagan "R" xizmat mavqeyidan foydalanib, tamagirlik yo'li bilan "L" ismli fuqarodan uni Ellikqal'a tumanida yangi tashkil qilingan 2-sonli bolalar va o'smirlar sport maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga ishga qabul qilish evaziga 1 000 AQSH dollari berishni talab qilib, shundan 500 AQSH dollarini 2022-yil 10-iyul kuni xizmat xonasida pora tariqasida olgan vaqtida ushlangan va sud hukmi bilan jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Sud hukmi asosida mazkur jinoyatning kelib chiqish sabablari tahlil qilinganda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 23-sentyabrdagi 211-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasidagi O'zbekiston Respublikasi

Davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan sport maktablari to'g'risida"gi nizomning 59-bandida nazarda tutilgan sport maktabi direktorining o'rinbosarlari sport maktabi muassisi bilan kelishgan holda sport maktabi direktori tomonidan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod qilinishi haqidagi qoida turtki bo'lganligi ko'rindi (Republic of Uzbekistan, 2010).

O'z navbatida, yuqoridagi jinoyat ishida sport maktabi direktori o'rinbosarligiga nomzodning sport maktabi muassisi huzuriga kelib suhbatdan o'tishi esa to'g'ridan to'g'ri korrupsiyaviy jinoyat kelib chiqishiga imkon bergan.

Shu sababli mazkur jarayondagi inson omilini qisqartirish, ochiq va shaffof holda nomzodlarni tanlash, tayinlash tizimini joriy etish taklif etiladi.

Jinoiy statistika ma'lumotlarini tahlil qilganda biron-bir sohada korrupsiyaviy jinoyatlarning mavjudligi yoki yo'qligiga to'liq baho berish imkoniyati mavjud emas (Bezborodov et al., 2021). Negaki korrupsiyaviy jinoyatlar latent bo'lib, ularning barchasi ham fosh etilmaydi.

Shu bois sport sohasida ham korrupsiyaga qarshi kurashishda faqat korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etganlarni aniqlash va ularni jazolash bilan cheklanib bo'lmaydi. Avvalo, tashkiliy-huquqiy xarakterdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Sivilizatsiya o'zini o'zi saqlab qolishi uchun harakat qilishga majburdir. Ammo ushbu harakat jazo tomonga emas, balki ijtimoiy nazoratni shakllantirish va jinoiy xavflarni minimalashtirishga qaratilishi lozim (Dzikonskaya & Grabchak, 2018).

Buning uchun sport sohasidagi korrupsiyaviy omillarning oldini olish borasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganish va o'zaro faoliyatni muvofiqlashtirish lozim.

Bu borada 2017-yil fevral oyida bo'lib o'tgan Xalqaro olimpiya qo'mitasining Xalqaro sport halolligi forumida ishga tushirilgan

Sportda korrupsiyaga qarshi xalqaro hamkorlik tashkiloti (IPACS)” faoliyatini qayd etish o‘rinli.

Ushbu tashkilotning vazifasi xalqaro sport tashkilotlari, hukumat, hukumatlararo tashkilot va boshqa manfaatdor tomonlarni korrupsiyaga barham berish hamda sportda va uning atrofida yaxshi boshqaruv madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan sa’y-harakatlarni kuchaytirish hamda qo‘llab-quvvatlash uchun birlashtirishdan iborat. O‘zbekiston ham ushbu tashkilotga a‘zo bo‘lishi, sportda halollikni ta‘minlash bo‘yicha hamkorlikda ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sport sohasida ma‘muriy boshqaruv jarayonlaridagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo‘yicha quyidagi takliflar bildiriladi:

sohadagi mavjud korrupsiya xavf-xatarlarini o‘rganish asosida, shu jumladan bolalar va yosh sportchilarga salbiy ta‘sir ko‘rsatish xavfini hisobga olgan holda sportdagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini ishlab chiqish;

barcha manfaatdor tomonlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish hamda mustahkamlash, axborot va ilg‘or tajriba almashishga ko‘maklashuvchi dastur, loyihalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini ta‘minlash;

BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi tamoyillariga muvofiq sport tashkilotlarining qoida va yo‘riqnomalarini ko‘rib chiqish, yangilash. Shu jumladan, bunda o‘z tashkiloti faoliyati to‘g‘risida ommaviy hisobotlarni taqdim etish hamda faoliyatda yuzaga kelayotgan korrupsiya xavf-xatarlarini baholash asosida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha keng qamrovli siyosatni ishlab chiqish;

sport tashkilotlari faoliyatidagi manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish va odob-axloq kodeksini ishlab chiqish;

sport tashkilotlarini boshqarish bo‘yicha ISO sertifikatlash standartini, ya‘ni 37001

(poraxo‘rlikka qarshi), 37002 (xabar berish), 37301 (muvofiqlikni boshqarish) va 20121 (hodisalar barqarorligi) standartlari bo‘yicha sertifikatlash tizimini joriy etish;

sport tashkilotlarining ma‘muriy boshqaruv funksiyalarini qayta ko‘rib chiqish, rahbariyatini ochiq saylash, rahbariyatning daromadlarini deklaratsiyalash, qarorlar qabul qilishda a‘zolarining majburiy ishtirokini ta‘minlash;

sportdagi korrupsiya darajasini va unga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar samaradorligini baholash hamda bu borada jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida ijtimoiy tadqiqotlar o‘tkazishni joriy etish;

sport sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish choralari aniq belgilab beruvchi “Sportda korrupsiyaga qarshi choralari to‘g‘risida”gi qonunni qabul qilish;

moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda shaffoflikni ta‘minlash va yillik moliyaviy hisobotlarni ochiq e‘lon qilishni yo‘lga qo‘yish;

korrupsiyaviy jinoyat uchun javobgarlikka tortilgan sportchilar, murabbiylar hamda sport tashkilotlari mansabdor shaxslarining reyestrini shakllantirish, ushbu reyestriga kirgan shaxslarning sport sohasida faoliyat yuritishini taqiqlash;

korrupsiyaning oldini olish choralari ko‘rmaganlik uchun sport klublari va boshqa tashkilotlarga nisbatan moliyaviy hamda jinoiy-ma‘muriy javobgarlik choralari belgilash.

Bir so‘z bilan aytganda, sport jamiyat ko‘zgusi bo‘lib, jamiyat muammolari sportda ham o‘z aksini topadi. Shu sababli sport tashkilotlari faoliyatiga samarali boshqaruv tamoyillarini joriy etish, ya‘ni ochiqlik, hisobdorlik, halollikning yuqori standartlariga rioya qilish, moliyaviy nazorat va auditni amalga oshirish korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘lidagi muhim qadamdir.

REFERENCES

1. Alekseeva, A. P. (2018). Problemy vyyavleniya faktov skloneniya k ispol'zovaniyu ili ispolzovaniya v otnoshenii substantsiy i (ili) metodov [Problems of identifying facts of inducement to use or use in relation to substances and (or) methods]. *Proceedings of the Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 46(2), 98–103.
2. Association of Summer Olympic International Federations. (2018). *ASOIF International Federation governance project: Examples of good governance practice*. ASOIF https://www.asoif.com/sites/default/files/download/asoif_members_good_practice_examples_2018.pdf
3. Bezborodov, D. A., Berestovoy, A. N., Kravchenko, R. M., Rakhmanova, E. N., & Topilskaya, E. V. (2021). Special features of criminal statistics of criminality in the field of sport. *SHS Web of Conferences. IX Baltic Legal Forum "Law and Order in the Third Millennium" (Vol. 108)*. <https://doi.org/10.1051/shsconf/202110803010>
4. Bratanovskiy, S. N. (2014). *Organizatsionno-pravovye problemy upravleniya fizicheskoy kulturoy i sportom v usloviyakh rynka [Organizational and legal problems of managing physical culture and sports in market conditions]*. Saratov University Press.
5. Committee of Ministers of the Council of Europe. (2018, December 12). Recommendation CM/Rec (2018)12 on good governance in sport. *Bulletin of the European Court of Human Rights*, (12). https://search.coe.int/cm/Pages/result_details.aspx?ObjectID=09000016808af51e
6. Dzikonskaya, S. G., & Grabchak, O. O. (2018). K voprosu o sub'ektakh kriminologicheskoy ekspertizy zakonodatelstva v RF [On the issue of subjects of criminological expertise of legislation in the RF]. *Eurasian Law Journal*, (11), 267–270.
7. International Olympic Committee. (1949). *Olympic rules (Olympic Charter)*. Olympic Studies Centre. <https://www.olympic.org/olympic-studies-centre/collections/official-publications/olympiccharters>
8. Karpovich, O. G. (2010). Ugolovno-pravovye voprosy borby s korruptsiyey v stranakh SNG [Criminal law issues of combating corruption in the CIS countries]. *Foreign Trade Law*, (2), 2–6.
9. Kupreeva, V. R. (2009). Printsipy upravleniya nekommercheskimi organizatsiyami [Principles of management of non-profit organizations]. *Bulletin of the Saratov State Technical University*, 37(1), 202–207.
10. Mirziyoyev, Sh. M. (2021, August 17). *Azmu shijoatli, vatanparvar sportchi yoshlarimiz – eng katta boyligimiz, millatimizning "oltin fondi"dir [Purposeful youth loyal to the motherland – our greatest wealth, the "golden fund" of the nation]*. Official Website of the President of the Republic of Uzbekistan. <https://president.uz/uz/lists/view/4542>
11. Mirziyoyev, Sh. M. (2025, February 13). *Sport – sog'lom xalq, sog'lom avlodning tayanch ustuni [Sport - a solid foundation for a healthy nation and a healthy generation]*. Official Website of the President of the Republic of Uzbekistan. <https://president.uz/uz/lists/view/7870>
12. Ponyatovskaya, T. G. (2019). Sportivnye otnosheniya i ugolovno-pravovoe regulirovanie [Sports relations and criminal law regulation]. *Union of Criminologists and Criminologists*, (1), 97–102.
13. Republic of Uzbekistan. (1994, September 22). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/docs/10860>
14. Republic of Uzbekistan. (2004). *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Establishment of the Ministry of Culture and Sports of the Republic of Uzbekistan"*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/docs/330557>
15. Republic of Uzbekistan. (2010, September 23). *Regulation on sports schools in the Republic of Uzbekistan financed from the State Budget of the Republic of Uzbekistan*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/uz/docs/1683015>
16. Republic of Uzbekistan. (2015, September 4). *On amendments and additions to the Law of the Republic of Uzbekistan "On physical culture and sports" (Law No. LRU-394)*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/uz/docs/2742233>

17. Republic of Uzbekistan. (2017). *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the management system in the field of culture and sports"*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/docs/3115562>
18. Republic of Uzbekistan. (2018, March 5). *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to fundamentally improve the system of public administration in the field of physical culture and sports"*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/docs/3578121>
19. Republic of Uzbekistan. (2021, April 6). *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to further improve the public administration system in the fields of tourism, sports and cultural heritage"*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/docs/5356705>
20. Republic of Uzbekistan. (2022a, February 18). *Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On the organization of activities of the Ministry of Sports Development"*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/docs/5868641>
21. Republic of Uzbekistan. (2022b, December 21). *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to implement administrative reforms of New Uzbekistan"*. National Database of Legislation. <https://lex.uz/docs/6324756>
22. Republic of Uzbekistan. (2024, January 20). *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures for enhancement of system of public administration in the sphere of youth policy and sport"*. National Database of Legislation. <http://lex.uz/docs/6765590>
23. Sattorov, O. F. (2022). Oliy ta'lim sohasida korrupsiya tushunchasi [The concept of corruption in the field of higher education]. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2(3), 834–839. <https://cyberleninka.ru/article/n/oliy-ta-lim-sohasida-korrupsiya-tushunchasi>
24. Solntsev, I. (2017). Effektivnost sportivnykh organizatsiy [Efficiency of sports organizations]. *Federalism*, 3(87), 56.
25. Sorokin, R. S. (2015). Prozhornost kak osnovnoy printsip protivodeystviya korrupsii [Transparency as the main principle of anti-corruption]. *Administrative Law and Procedure*, (10), 60–64.
26. Sport England. (2021). *A code for sports governance*. <https://www.sportengland.org/campaigns-and-our-work/code-sports-governance>
27. Truntsevskiy, Yu. V. (2020). Protivodeystvie korrupsii i podderzhanie chestnosti v sporte (sravnitelno-pravovoy aspekt) [Countering corruption and maintaining integrity in sports (comparative legal aspect)]. *Proceedings of the Academy of Management of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 54(2), 115–122.
28. Vlasov, I. S., Koshaeva, T. O., Naidenka, V. N., Kolesnik, A. A., Tikhomirov, Yu. A., & Tsirin, A. N. (2010). *Pravovye akty: Antikorrupcionnyy analiz [Legal acts: Anti-corruption analysis]*. Kontrakt.

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2026-yil 1-son

VOLUME 10 / ISSUE 1 / 2026

DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.ROLS.2025.10.1)